# CLIL TEXNOLOGIYASI ORQALI CHET TILLARINI O`QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Ernazarova Gulnora Oblaqulovna**
Chichiq davlat pedagogika universiteti,
Pedagogika fakulteti professori,
Telefon:+998(94) 653-85-83
E-mail: gulnora.chdpu@gmail.com.
Chichiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakultetining 1-bosqich magistri
**Axmedova Latofat Ziyoviddin qizi**
latofat@gmail.com

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada chet tillarni o`qitish samaradorligini oshirish qanday yo`llar orqali yosh avlodni zamonaviy interaktiv metodlar orqali qiziqarli va tez o`rgatish, CLIL texnologiyasi ya`ni "Content language integrated learning (Fan va tilni integratsiyalashgan holda o`rganish)" tizimi orqali samarali tarzda o`rgatish va buni davom ettirish dolzarb mavzulardan biri ekanligi, fanlarni chuqurroq o`rganishda keng va qulay imkoniyatlari batafsil yoritilgan.

**Kalit so`zlar**: zamonaviy pedagogik salohiyat,ta`limda zamonaviy texnologiyalar,chet tillarini o`qitish samaradorligini oshirish, kommunikativ metodlar,shaxsga yo`naltirilgan yondashuv.

**Аннотация**: В данной статье подробно рассматриваются способы повышения эффективности преподавания иностранных языков, методы интересного и быстрого обучения молодого поколения с помощью современных интерактивных методов, а также способы эффективного обучения и продолжения обучения с использованием технологии CLIL, то есть системы интегрированного обучения содержанию, языку и дисциплинам (Content language integrated learning), и ее широкие и удобные возможности для углубленного изучения естественных наук.

**Ключевые слова**: современный педагогический потенциал, современные технологии в образовании, повышение эффективности преподавания иностранных языков, коммуникативные методы, личностно-ориентированный подход.

**Abstract:** This article discusses in detail how to increase the effectiveness of foreign language teaching, how to teach the younger generation in an interesting and fast way through modern interactive methods, how to effectively teach and continue this through CLIL technology, that is, the Content language integrated learning (Integrated Learning of Science and Language) system, and its wide and convenient opportunities for deeper study of sciences.

**Keywords**: modern pedagogical potential, modern technologies in education, increasing the effectiveness of foreign language teaching, communicative methods, person-centered approach.

**KIRISH** Respublikamizda ta`lim sohasida olib borilayotgan islohotlar kadrlar tayyorlash sifatiga qo`yilayotgan zamonaviy talablar ta`lim jarayonining har bir bo`g`inida o`z yangiliklarini ko`rsatmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida ta`lim jarayonini modernizatsiya qilish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim yo`nalishlardan biri hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda boshlang`ich ta`lim jarayonida raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish o`quvchilarning bilish faolligini oshirishda samarali omil sifatida ko`rsatiladi. Ta`lim tizimidagi islohotlar ning muvaffaqiyati ko`p jihatdan o`qituvchi va murabbiylarga bog`liq. Bugungi kun o;qituvchisi o`z ustida tinimsiz ishlaydigan har tomonlama keng fikrlaydigan ilg`or pedagogic va axborot texnologiyalarini samarali qo`llay oladigan ijodkor shaxsga yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o`zi talab etmoqda.

**METODOLOGIYA**

Shu jihatdan olib qaraydigan bo`lsak CLIL texnologiyasi ham nafaqat chet tillarini o`qitishda balki boshqa fanlarni chuqurroq o`rganishda ham keng va qulay imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Asosiy maqsadlaridan biri esa:

1.Axborotlashtirish usullarini kengaytirish
2.Jamiyatni texnologiyalashtirish
3.Ilmiy –texnik taraqqiyot darajasini oshirish hisoblanadi.

Chet tillarini smarali va zamon bilan hamnafas usulda olib borish ta`lim jarayonida muhim o`rin tutadi, hamda pedagogik texnologiyalardan o`quvchilarni xabardor etish,mukammal modul asosida loyihalashga erishish,ta`lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalanish va ko`nikma malakalarga ega bo`lish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ishlovchi pedagog o`qtuvchilarning ta`lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashuvi samaradorligini baholashning ishonarliligini ta`minlash uchun uning monitoringini olib borish va tahlillar o`tkazish va ularning hisobotlarini eshitib borish.CLIL(Fan va tilni integratsiyalashgan holda o`rgatish) texnologiyasi fan mazmunini va xorijiy tilni bir vaqtda o`rgatishga asoslangan.Uning asosiy yo`nalishlari 4C modeli

1. Mazmun
2. Muloqot
3. Kognitiv rivojlanish
4. Madaniyat

Bundan tashqari tilni faqat nazariy emas,balki real vaziyatlarda kasbiy yoki akademik muhitda ishlatishga o`rgatish.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) — bu fan va chet tilini integratsiyalashgan holda o`qitish texnologiyasi bo`lib, unda dars fani (masalan, tarix, biologiya yoki iqtisodiyot) bevosita xorijiy tilda o`tiladi. Bu usul talabaning ham fanni o`zlashtirish, ham til ko`nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish samaradorligini keskin oshiradi.

**MUHOKAMA**

Samaradorlikni ta`minlash uchun CLIL darslari quyidagi to`rt komponentga asoslanishi shart:

1. Content (Mazmun): Fanga oid aniq bilimlar berilishi (til o`rganish maqsad emas, vosita bo`ladi).
2. Communication (Muloqot): Talabalar fanni o`rganish jarayonida tildan faol foydalanishi.
3. Cognition (Bilimni anglash): Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish (muammoni tahlil qilish).

4. Culture (Madaniyat): O`rganilayotgan til madaniyati va fanlararo aloqalarni tushunish.

CLILni amaliyotda qo`llashda quyidagi usullar yuqori natija beradi:

Scaffolding (Tayanch yordam): Talaba tilni mukammal bilmasa ham, fanni tushunishi uchun ko`rgazmali qurollar, grafik organayzerlar, klyuch-so`zlar (glossariy) va vizual materiallardan keng foydalaniladi.

Bilingvizm (Ikki tillilik): Qiyin tushunchalarni tushuntirishda ona tili va chet tilining muvozanatli qo`llanilishi (lekin asosiy muloqot xorijiy tilda bo`lishi kerak).

Guruhlarda loyiha ishlari: Talabalar birgalikda fanga oid muammoni chet tilida yechishadi. Bu jarayonda til tabiiy ehtiyojga aylanadi.

Tushunchaga urg`u berish: Grammatik xatolarga haddan tashqari e`tibor qaratmay, fanga oid g`oyaning to`g`ri yetkazilishiga urg`u beriladi. Bu talabadagi "til to`sig`i"ni yo`qotadi.

CLILning an`anaviy metodlardan afzalligi:

Motivatsiyaning yuqoriligi: Talaba tilni "shunchaki" emas, balki aniq bir soha mutaxassisi bo`lish uchun o`rganadi.

Akademik lug`at boyligi: Talaba kundalik so`zlar bilan birga, o`z sohasining xalqaro terminologiyasini ham o`zlashtiradi.

Vaqtni tejash: Fan va til bitta darsda parallel o`rganiladi.

**XULOSA**

CLIL texnologiyasi bu zamonaviy ta`limni yangi bosqichga olib chiqadigan integratsion modeldir. U orqali o`quvchi bir vaqtning o`zida bilim oladi,tilni o`rganadi va tafakkurni rivojlantiradi. Mazkur tadqiqot natijalari chet tillarini o`qitish sifatini yaxshilash, faoliyatini metodik jihatdan qo`llab – quvvatlash hamda o`quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI**

1. Bahtiyorova.M.(2021)Fanlararo integratsiya va CLIL texnologiyasi asosida o`qitishning samaradorligi.„Ta`lim texnologiyalari”jurnali N3-Toshkent_B 45-51
2. Bentley.K (2017).The TKT Course:CLIL Module.Cambridge:Cambridge University Press-128 p
3. Coyle.D.Hood ,P.Marsh.D(2010)CLIL :Cambridge:Cambridge University Press -184 p
4. Bell, S. (2019). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. Educational Leadership, 77(2), 39-45.
5. Ernazarova G.O. Formation of technological competence in future educators./ наука и инновации/международный научный журнал выпуск тома 2. 1 ноябрь 2023. пиф 8.2 б ISSN: 2181-3337 scientists.uz.473-477 c.